



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 125 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
Toyirova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020-2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	



2020–2024-YILLARDA O‘ZBEKISTONDAGI IQTISODIY O‘SISH DINAMIKASI

Akbarov Nodir

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari
fakulteti dekani, i.f.f.d, PhD, dotsent

Ibodullayev Navro‘zbek

Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Iqtisodiyot ko‘p tarmoqli va doim o‘zgaruvchan, yangilanib boruvchi sohadir. Butunjahonda innovatsion texnologiyalar va IT sohasiga katta urg‘u berilayotgan bo‘lsa-da, iqtisodiyot istalgan mamlakat rivoji uchun muhim ustun hisoblanadi. So‘nngi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotini yuksaltirish uchun ham keng ko‘kamli ishlar amalga oshirilmog‘da. Ushbu maqolada yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va raqamlashtirish uchun tuzilgan davlat dasturlari va stretegiyalar, shuningdek iqtisodiyotimizning o‘tgan bir necha yildagi ko‘rsatkichlari jadval va diagrammalar orqali tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, elektron hukumat, eksport, import, savdo-sotiq, sanoat, xususiy sektor, ishlab chiqarish.

Abstract: The economy is a multi-sectoral and constantly changing, constantly renewing sector. Although great emphasis is placed on innovative technologies and the IT sector in the world, the economy is an important pillar for the development of any country. In recent years, extensive work has been carried out to improve the economy of Uzbekistan. This article analyzes state programs and strategies for the development and digitalization of our country's economy, as well as the indicators of our economy over the past few years, using tables and diagrams.

Key words: economy, e-government, export, import, trade, industry, private sector, production.

Аннотация: Экономика – это многопрофильная, постоянно меняющаяся и обновляющаяся сфера. Хотя во всем мире уделяется большое внимание инновационным технологиям и ИТ-сектору, экономика является важной основой развития любой страны. За последние годы проведена масштабная работа по улучшению экономики Узбекистана. В статье анализируются государственные программы и стратегии, направленные на развитие и цифровизацию экономики нашей страны, а также показатели нашей экономики за последние несколько лет с помощью таблиц и диаграмм.

Ключевые слова: экономика, электронное правительство, экспорт, импорт, торговля, промышленность, частный сектор, производство.

KIRISH

XXI asr texnologiya asrida dunyo tez o‘zgarmoqda. Vaqt hech qachon bir joyda turmaydi, aksincha tezlashadi. Dunyoning barcha davlatlari taraqqiyot sari intilib, zamon bilan hamnafaslikda yuksaklikka erishmoqda. Biz texnologiya asrida yashayotgan bo‘lsakda, baribir mamlakatni taraqqiyot sari boshlaydigan asosiy omil bu iqtisodiyotdir. Eng rivojlangan deb atalgan mamlakatlarda iqtisodiyotga katta e‘tibor qaratiladi, u doimo yangi innovatsion g‘oyalar bilan rivojlanadi.

Rivojlanayotgan davlatlar qatoridan rivojlangan mamlakatlar safiga qo‘shilishni maqsad etgan O‘zbekistonda iqtisodiy sohani takomillashtirish ustuvor vazifalardan biridir. Keyingi yillarda iqtisodiyotimizga yangicha qarashlar bilan yondashilmoqda. Jahon tajribasiga tayangan holda, iqtisodiyotimizni zamonaviy innovatsion g‘oyalar va raqamli tizimlar orqali rivojlantirish bo‘yicha qator maqsadlar belgilandi. 2020-yil 24-yanvar kuni Prezident Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida 2020-yilni O‘zbekistonda “Ilm-marifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nomlashni taklif qildi va bu taklif parlament vakillari tomonidan bir ovozdan ma‘qullandi.¹

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2020/01/24/president-speech/>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A.Yusupov[1] o'z maqolasida O'zbekiston iqtisodiyotida 2020-yildan keyingi liberallashtirish jarayonlari hamda xalqaro savdo aloqalarining kengayishi sababli yuzaga kelgan o'sish trendlarini tahlil qiladi. Ushbu ilmiy ishda xususiy sektor rivojini rag'batlantirish, investitsiya muhiti va bank tizimidagi islohotlarning YaIM o'sishiga ta'siri bo'yicha empirik dalillar keltirilgan.

B.Ahmedov[2] tadqiqotida O'zbekistonda 2020–2024-yillarda amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining modernizatsiyasi o'sish dinamikasiga qay darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgani chuqur o'rganilgan. Muallif YaIMda xizmatlar sektorining ulushi ortib borayotganini qayd etib, iqtisodiy o'sish omillarini hududlar kesimida ham solishtiradi.

Jahon Banki hisobotida[3] O'zbekistonning 2020–2024-yillarda iqtisodiy rivojlanish prognozlari, islohotlar samarasini oshirish bo'yicha tavsiyalar va global iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarning respublika iqtisodiyotiga ta'siri atroflicha tahlil etiladi. Hujjatda xususiy sektorni rivojlantirish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va mehnat bozoridagi yangilanishlar bo'yicha raqamli ko'rsatkichlar keltirilgan.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasining hisobotida[4] O'zbekiston iqtisodiy siyosati, ayniqsa, monetar va fiskal intizomga oid chora-tadbirlar hamda 2020–2024-yillar oralig'ida kutilayotgan o'sish ssenariylari ko'rib chiqiladi. Hisobotda inflatsiyani nazorat qilish, valyuta liberallashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish va ish o'rinlarini yaratish bo'yicha amaliy tavsiyalar mavjud.

I.Petrov[5] ilmiy maqolasida O'zbekiston iqtisodiyotining 2020–2024-yillardagi tarmoqlar kesimidagi o'sish xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Xususan, sanoat diversifikatsiyasi va qishloq xo'jaligidagi qiymat zanjiri kengayishi natijasida YAIM tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ulushining oshishi tahlil qilinadi. Petrov, shuningdek, industrial rivojlanish, investitsion muhit va mehnat bozoridagi o'zgarishlarni o'zaro bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqib, islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Tadqiqotda qiyosiy va statistik usullar, tizimli tahlil va sintez usullari qo'llaniladi. Tadqiqot uchun axborot bazasi rasmiy statistik ma'lumotlar va xorijiy manbalardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2020-yilda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida katta qadamlar tashlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 28-aprel kuni "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli² qarorni imzoladi. Qarorga ilova qilib "Elektron hukumat" tizimining arxitekturasini va 2020–2022-yillarda elektron hukumatni yanada yuksaltirish bo'yicha ustuvor loyihalar ro'yxati tuzildi.

2019-yil oxirida Xitoyda paydo bo'lgan Covid-19 koronavirusi 2020-yildan boshlab butun dunyoga juda keng miqyosda tarqaldi. Deyarli barcha davlatlar karantin tizimini qo'llash orqali ushbu kasallikka qarshi kurasha boshladi. Bu davrda o'zaro tashqi iqtisodiy aloqalar to'liqini pasaydi. 2020-yil 15-martda ushbu virus O'zbekiston hududida aniqlandi va yurtimizda qattiq karantin rejimi qo'llanildi. Shu bilan birga, davlat sektorida va xususiy sektorda savdo-sotiq jarayonlari sekinlashdi, ishlab chiqarish hajmi kamaydi. Xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalar(import va eksport jarayonlari) to'xtatib qo'yildi. Aksariyat davlat muassasalari, ishxonalar, ta'lim muassasalari(universitet, kollej, maktab, o'quv markaz va boshqalar) ning faoliyati an'anaviy tizimdan masofaviy tizimga o'tish orqali uzluksizligi ta'minlandi. Bu harakatlar iqtisodiyotimiz yuksalishiga to'sqinlik qilmay qolmadi. Keyinchalik virusga qarshi vaktsinalar ishlab chiqildi va odamlar virusga qarshi immunitetga ega bo'ldi. Bosqichma-bosqich barcha to'siqlar bartaraf etilib, mamlakatlarimizning ishlab chiqarish, savdo va sanoat tarmoqlari faollasha boshladi. Davlat tashkilotlari va ta'lim muassasalarida ish va o'quv jarayonlari ham an'anaviy tizimga qaytib, insonlar avvalgi hayot tarziga qaytdi.


2017-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi amaliyotga joriy qilinib, yaxshi samara va natijalar bergandan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvar kuni "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli³ Farmonni imzoladi. Farmonda 7 bob va 100 maqsaddan iborat strategiya tuzilgan. Strategiyaning III bobi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb nomlangan va unga iqtisodiyotni progressiv rivojlantirish bo'yicha maqsadlar va vazifalar kiritilgan. "21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon

2 <https://lex.uz/docs/-4800657>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>




boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4000 AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish."⁴ So'nggi yilgi ma'lumotlardan kelib chiqadigan bo'lsa aholi jon boshiga YalM hajmi 2000-2500 AQSh dollarini tashkil etgan. Aholimiz soni ortib borsa ham, turmush darajasini rivojlantirish iqtisodiyotimiz oldida turgan ustuvor vazifadir. Davlat rahbarimiz ta'kidlaganidek: "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi."⁵(1-rasm).



1-rasm. 2020-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida YalM(Yalpi ichki mahsulot) va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha statistikasi.⁶

Yuqoridagi 1-jadvalda sanoat mahsulotlari va yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha so'nggi 4 yildagi statistik ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ikkala ko'rsatkichda ham doimiy o'sish kuzatildi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yiliga o'rtacha 21 foizga o'sgan bo'lsa, yalpi ichki mahsulot esa o'rtacha 20 foizga oshdi. Sanoat mahsulotlari va yalpi ichki mahsulot mamlakatning iqtisodiy o'sishidagi eng muhim rol o'ynovchi indikatorlardan hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2020–2023-yillarda amalga oshirilgan eksport va import mahsulotlari hajmi.⁷

4 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>


5 <https://uza.uz/oz/posts/xalq-boy-bo'lsa-davlat-ham-boy-va-qudratli-bo'ladi-27-02-2017>

6 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

7 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Quyidagi jadvalda so'nggi yillarda mamlakatimizning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi harakatlarini ochiq lab beruvchi import va eksport hajmlari bo'yicha statistika keltirilgan. Ushbu davr davomida ikkala ko'rsatkich ham o'zaro sinxron ravishda o'sib bordi va tashqi savdo aylanmasining ko'tarilishiga olib keldi. 2020-yilda tashqi savdo aylanmasi qariyb 36 milliard AQSh.dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakunida bu qiymat 64 milliardga yetdi. Albatta, dunyoning aksariyat mamlakatlari singari bizda ham import hajmi eksportdan yuqoriroq. Bu natijani eksport tomonga yaxshilash uchun eng asosiy kalit bu JST(Jahon Savdo Tashkiloti)ga a'zo bo'lishdir (3-rasm).



3-rasm. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi statistikasi hududlar kesimida.⁸

Ushbu diagrammada yurtimizning hududlar kesimida umumiy daromadlarining aholi jon boshiga nisbatan hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar keltirilgan. Albatta poytaxtimiz Toshkent shahrida davlat va xususiy tashkilotlar, kompaniyalar ko'pligi va O'zbekiston bo'yicha eng yuqori oylik maoshlar berilishi sababli, bu ko'rsatkichda 16 foiz bilan Toshkent shahri yetakchilik qiladi. Navoiy viloyatida yer usti va yer osti resurslari, konchilik sanoati yetuk rivojlanganligi va aholi sonining kamligi hisobidan bu reytingda 11 foiz bilan ikkinchi o'rinda boradi. Garchand, Farg'ona vodiysida tadbirkorlik, ishlab chiqarish va yengil sanoat sohalari keng rivojlangan bo'lsa-da, yurtimiz aholisining katta qismi aynan Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlarida istiqomat qilishi va u yerda aholi zichligining yuqoriligi tufayli, bu viloyatlar 5-6 foiz qismni tashkil etgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'tgan davr mobaynida 2020–2023-yillarda O'zbekistonda iqtisodiyot sohasining barcha tarmoqlarida ijobiy tomonlama o'zgarishlar kuzatildi. 2023-yil yakuni bo'yicha aholi jon boshiga YaIM hajmi deyarli 2500 AQSh dollariga yetdi. Yuqorida aytilganidek, bu raqamni 2030-yilgacha 4000 AQSh dollariga yetkazish davlat oldidagi ustuvor vazifalardan biridir.

Olingan tahlillar yuzasidan quyidagi takliflarni berish mumkin:

JST(Jahon Savdo Tashkiloti) ga a'zo bo'lish. A'zolik mahalliy mahsulotlarni jahon bozoriga chiqishiga va

⁸ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



ularga dunyoning har bir chekkasidan talab bo'lishi, eksport hajmining progressiv ko'tarilishi kabi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Iqtisodiyot sohasidagi davlat tashkilotlari, vazirliklar, qo'mitalarda faoliyat yuritayotgan rahbar xodimlarning malakasini oshirish. Ularni har yili dunyodagi rivojlangan mamlakatlarga amaliyot uchun yuborish. Ular jahon tajribasini olib, o'rgangan bilimlarini yurtimiz rivoji uchun qo'llashadi.

"Elektron hukumat" tizimini mamlakat bo'ylab maksimal joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish. Davlat xizmatlarini to'liq onlayn platformalar(my.gov.uz, oneid, my3soliq.uz)ga o'tkazish va ularning imkoniyatlarini yanada kengaytirish. Bu orqali aholining ham vaqti, ham mablag'i tejaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupov, A. (2021). "Iqtisodiy liberallashtirish va makroiqtisodiy barqarorlik: O'zbekiston tajribasi." Iqtisodiy tahlil jurnali, 3(10), 45–62.
2. Manba: Ahmedov, B. (2022). "O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar: 2020–2024-yillar tahlili." Ijtimoiy fanlar jurnali, 5(2), 12–29.
3. World Bank (2023). Uzbekistan Economic Update: Reforms and the Prospects for Growth. Washington DC: World Bank Publications.
4. IMF (2023). Republic of Uzbekistan: 2023 Article IV Consultation – Staff Report. International Monetary Fund.
5. Petrov, I. (2023). "Diversification Strategies and Industrial Upgrading: Evidence from Uzbekistan's Post-2019 Reforms." Central Asian Economic Review, 17(1), 120–138.
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/01/24/president-speech/>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-4800657>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti <https://stat.uz/uz/>
10. <https://uza.uz/oz/posts/xalq-boy-bo-isa-davlat-ham-boy-va-qudratli-bo-ladi-27-02-2017>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
